

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MAKTABGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

*Urganch davlat pedagogika instituti pedagogika fakulteti maktabgacha ta'lim  
yo'nalishining 1-bosqich talabasi*  
**Komiljanova Gulsanam Quvondiq qizi**  
*Urganch davlat pedagogika instituti „Maktabgacha ta'lim kafedrası “ o'qituvchisi*  
**Feruza Yusupova**

**Annatsiya:** *Ushbu maqola Maktabgacha yoshdagi bolalarning maktabga tayyorlashning psixologik xususiyatlari bag'ishlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiyasidagi psixologik jarayonlarining nazariy asoslari ochib berilgan. Maqolaning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik bilimni shakllantirishning nazariy asoslari, metodikasini o'rgatish, maktabgacha yoshdagi bolalarning tasavvurlarini shakllantirish yuzasidan tajriba sinov ishlarini takomillashtirish belgilanib, maqsadga mos holda vazifalar belgilangan.*

*Maktabgacha yoshdagi bolalarning tasavvurlarini shakllantirishda markazlar faoliyatidan foydalanish metodikasini o'rgatish mashg'ulotlarini tashkil qilishga zamonaviy yondashuv masalalari yoritilgan. Ishda Maktabgacha yoshdagi bolalarning ta'lim tarbiyasini shakllantirish mashg'ulotlarini tashkil qilishning metodik ta'minotini takomillashtirish masalasiga to'xtalinib, unda maktabgacha ta'limda bolalarning psixologiyasi dunyoqarashi tasavvurlarini shakllantirishda markazlar faoliyatidan foydalanish mashg'ulotlari mazmuni, shakl va metodlari tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Ijtimoiy muhit, psixosteniya, demokratik, avtoritar, nutq, mustaqil fikrlash, estetik*

### KIRISH

Bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashda birinchi navbatda kelajakda bo'ladigan rejalar va vaziyatlarning o'zgarishini inobatga olish ularning sog'ligi va psixologiyasi haqida o'ylash muhimdir. Bola maktabgacha davrda normal rivojlangan bo'lsa uning jismoniy va aqliy rivojlanishiga hech qanday kuchli ta'sirlar bo'lmagan bo'lsa, unda bola yetti yoshda ta'lim olish darajasiga yetgan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining „Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonun O'zbekiston Respublikasi Parlamentining qonunchilik palatasi tomonidan 22-oktabr 2019-yilda qabul qilingan. Senat tomonidan esa 2019-yil 14-dekabrda ta'sdiqlangan. Prezidentimiz tomonidan 2016-yil 16-dekabrda imzolangan. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh. Mirziyoyev 2017-yil 9-sentyabr „Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-3261, 2018-yil 30-sentyabr, „Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi PQ-3955-son kabi qator qaror, qonun osti hujjatlar yaratildi. Maktabgacha

ta'lim davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida va oilada amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'limning maqsadi –bolalarni maktabdagi o'qishga tayyorlash ularning iqtidor va qobiliyatlarini ochib berish, o'qishga, ta'limga bo'lgan ishtiyoqni shakllantirishdir. Shularni inobatga olib, "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori hamda "Maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlandi. Bu qonun hujjatlarida maktabgacha ta'lim tizimini yaxlit, uzliksiz ta'lim tizimining muhim bo'g'ini sifatida yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish hamda moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ular malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni har tomonlama intellektual, ma'naviy-estetik va jismoniy rivojlantiruvchi zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini ta'lim-tarbiya jarayoniga joriy etish, ularning maktabga tayyorgarlik darajasini tubdan oshirish kabi masalalar o'z ifodasini topgan. Farobiy fikriga ko'ra bola mukammal shaxs bo'lib rivojlanishi uchun ma'naviy rivojlanishi, shu jumladan, axloqan rivojlanishi poydevoridir deb qaraydi. D.B.Elkonin yozganidek, bola jamiyat a'zosi va shaxs sifatida shakllanib borar ekan, uning psixikasi rivojlanib, olamni aks ettirish qobiliyati go'daklikdan yetuklik davrigacha murakkablashib va takomillashib boradi. P.M.Yokobsan ko'rsatib o'tganidek, maktabgacha yosh davrida hissiyotning bola harakatlarining motivi sifatidagi ro'li o'zgarib boradi. 3yoshgacha bolaning harakatlari dunyoni ijobiy salbiy xususiyatlarini anglashga asoslanadi. 3-4 yoshli bolada boshqalarga taqlid qilishi kamayib o'zining meni shakllanadi. Endilikda bola psixologiyasiga o'yin bilan birgalikda o'qish faoliyati va mehnat faoliyati ham kirib keladi. 4-5 yoshda bola o'z harakatlarini hissiyotlarini bevosita namoyon etishdan o'zini tuta olishi yoki oliy hissiyotlariga asoslanib harakat qilishi mumkin. Emotsiya va hissiyotlar boshqaruv funksiyasini bajarib, bolaning xulq-atvorini qayta qurishga yordam beradi. Emotsional kechinmalar, xatti-harakatlarni qo'llab-quvvatlaydi, yo'naltiradi yoki tormozlaydi. Bolaning xulq-atvorini o'zgartirishga qaratilgan kattalarning ta'sirlari va talablari bola tomonidan emotsional qabul qilinsa, bola harakatlarning undovchisi bo'lib xizmat qiladi va emotsional javobni uyg'otadi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar, asosan, maktab ta'limiga maktabgacha ta'lim tashkilotlarida va oilada tayyorlanadi. Bolani maktabga tayyorlashda, oilada bo'layotgan jarayonlar ota-ona va bola o'rtasidagi munosabat muhim ro'l o'ynaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti, axloqi qiziqishi va munosabatlarida anchayin jiddiy o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun bolani oiladanoq maktab ta'limiga tayyorlash, uning uchun qiyin bo'lmagan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Yetakchi mutaxassisliklarning fikriga ko'ra, "Maktabga tayyorgarlik" tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi,

\_ Jismonan

- \_ Shaxsiy(ruhiy)
- \_ Aqliy
- \_ Maxsus tayyorgarlik

Jismoniy tayyorgarlik bolaning sog'lomligi, harakat ko'nikmalari va sifati, qo'l mushaklari va ko'rish- motor muvofiqi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shaxsiy tayyorligi, atrof-muhitga, kattalarga, tengdoshlariga, o'simliklar dunyosiga, tabiiy hodisalarga munosabati, shaxsiy madaniyatning shakllanganligini nazarda tutadi. Aqliy tayyorgarlik bolaning obrazli va mantiqiy fikrlashi, bilimga qiziqishi, mustaqilligi o'zini- o'zi nazorat qilishi hamda o'quv faoliyatini kuzatish, eshitish, eslab qolish, solishtirish kabi asosiy turlarini bilishini o'z ichiga oladi. Bolaning maktabda ta'lim olishi samarasi uning ona tilini bilishga va nutqni qanchalik rivojlanganligiga ko'proq bog'liq bo'ladi. Chunki butun o'quv faoliyati shularga, ya'ni nutqiy- mantiqiy rivoji, bolaning kattalarning yordamisiz mustaqil fikrlashi, til malakasining rivojlanganligi, hikoya qilish, mulohaza yuritish, o'z tasavvurini izohlay olish, tushunarli qilib bayon etish kabi omillar asosiga quriladi. Shuningdek, bolaning maktabda ta'lim olishi uchun amaliy intellekt rivoji, ya'ni uning namunani chizish, aytib turiladigan bayoniy topshiriqni bajarishi ham muhim sanaladi. va nihoyat, maxsus tayyorgarlik bolani savodxonlikka o'rgatish va uning maktabning 1-sinf o'quv dasturi materialini yetarli darajada egallash haqidagi tushunchasini shakllantirishni nazarda tutadi. Bolalarni maktabda o'qitishning samaradorligi ko'p jihatdan ularning tayyorgarlik darajalariga bog'liq. Maktabda o'qishga tayyorgarlik maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilada maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaga qo'yiladigan talablar orqali aniqlanadi. Bu talablarning o'ziga xos tomoni o'quvchining yangi ijtimoiy-psixologik o'rni bilan bog'liq. Bola o'z oldiga qo'yiladigan vazifalarni bajarishga tayyorlangan bo'lishi lozim. Maktabga kirish bola hayotidagi odatiy turmush tarzi, atrofdagilar bilan munosabat tizimining o'zgarishiga aloqador muhim davr hisoblanadi.

Xulosa; Maktabga qadam qo'yish, bola hayotidagi muhim davr. Bola maktabga qadam qo'yar ekan yangi hayot bilan tanishadi. Maktab davrida bola bilan ishlashda avvalo ota-ona va o'qituvchi asosiy ro'lni o'ynaydi. Bola ruhan, aqlan va jismonan rivojlanishida ya'ni har tomonlama shakllanishida oila, maktabgacha ta'lim va maktabda olingan ta'lim tarbiya muhim hisoblanadi. Bolaning atrof muhit bilan bo'lgan munosabati ota-onasi bilan bo'lgan munosabatlari bolaning psixologiyasiga ta'sir ko'rsatadi. Bolani to'g'ri tarbiyalash, u bilan to'g'ri shug'ullanish unga me'yoriy qoidalarni o'rgatish va momila madaniyatini shakllantirish muhim hisoblanadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YHATI:**

1. Z.H.Nasirova Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar nutqini o'stirish

2. Z.Nishanova G.Alimova M. Asranboyeva A.Turg'unboyeva Bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasi

3.D.Asqarov Bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash metodikasi  
Internet manbalari

4 cyberleninka.ru>article/n/bolalarni-maktab-ta-...

5.e-library.namdu.uz>74 Педагогика фанлар/Болаларни...

6 muhaz.org>mavzu-bolalarning-maktabga-aqliy-...